

---

## TOSHLOQ TUMANIDA “JADIDLAR” KITOBLAR TO‘PLAMI TOPSHIRILDI

Jadidlar xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatini yuksaltirish, xalq o‘z kuchiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi kerakligini xalq ongiga singdirish, zulmga va inson qadr-qimmatini kamsitilishiga qarshi faol kurash olib bordilar.

Yillar davomida xalqimizga ana shunday xizmat qilib kelgan ma’rifatparvar jadidlar hayoti va faoliyatini keng targ‘ib qilish maqsadida chop etilgan “Jadidlar” kitoblari Respublikamiz bo‘ylab o‘z egalariga yetkazib berilmoqda.

Bugun O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi va tuman Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tumandagi sektor rahbarlari va ta’lim muassasalari direktorlariga “Jadidlar” kitoblar to‘plamlari yetkazib berildi.

2022-09-05 18:11:29